

**TIJORAT BANKLARINING STRUKTURASINI O‘ZGARTIRISH ORQALI  
KAPITAL BOZORIDAGI INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH  
HAMDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI YAXSHILASH**

**Sharipov Akmal Raxmatovich**  
*Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada tijorat banklarining strukturasini o‘zgartirish orqali kapital bozoridagi faoliyatini yaxshilash **haqida so‘z yuritiladi.**

**Kalit so‘zlar:** Markaziy bank, tijorat banki, kapital bozori, iqtisodiy o‘sish, moliya tashkilotlari, moliya vositachiligi, risklarni boshqarish, omonatlarni to‘plash, kreditlar, investitsiyalar.

**Annotation:** This article talks about improving the activity of commercial banks in the capital market by changing their structure.

**Key words:** Central bank, commercial bank, capital market, economic growth, financial institutions, financial intermediation, risk management, accumulation of deposits, loans, investments.

**Аннотация:** В данной статье говорится об совершенствовании деятельности коммерческих банков на рынке капитала путем изменения их структуры.

**Ключевые слова:** Центральный банк, коммерческий банк, рынок капитала, экономический рост, финансовые институты, финансовое посредничество, управление рисками, накопление депозитов, кредиты, инвестиции.

### **KIRISH**

Yurtboshimiz e’tirof etganlaridek, biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnologik jihatdan uzlusiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo‘lishi zarur.

Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etish banklarning moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu esa bevosita ularning moliyaviy barqarorligining ta’milanishiga, resurs bazasining mustahkamligiga bog‘liq.

Shu jihatdan olganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridagi:

- xalqaro me’yor va standartlarga muvofiq, shu jumladan depozit va kredit siyosati sohasida respublika banklariga nisbatan qo‘yilayotgan me’yoriy talablarni yana-da takomillashtirish;

- tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, omonat va depozitlarning yangi jozibador turlarini joriy qilish yo‘li bilan aholi va xo‘jalik subyektlarining bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga keng ko‘lamda jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- yetakchi xorijiy banklar va moliya institutlarida boshqaruvni tashkil etish tizimini chuqur o‘rganish asosida tijorat banklarida korporativ boshqaruv usullari, shu jumladan xatarlarni boshqarish va ichki nazoratni yaxshilash usullarini takomillashtirish;

- ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etgan holda ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish, shuningdek bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish kabi qator vazifalar belgilanib amalga oshirib kelinmoqda. (Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami, 2016)

Tijorat banklari kapital bozoridagi faoliyatini yaxshilash uchun, ular o‘z faoliyatida yuqori samara to‘g‘ri keladigan va kamida riskka moyil bo‘lgan operatsiyalarni kengaytirishlari lozim. Shu hamda, bank aksiyadorlari va boshqa manbalar hisobidan shakllangan kapital strukturasini to‘g‘ri boshqarish muhim ahamiyatga ega. Mazkur amaliy choralar, banklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun muhimdir.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi banklar faoliyatini takomillashtirish orqali ularni likvidililigi va daromadliligiga erishish, tijorat banklarining depozitlari hajmini oshirish orqali banklarning resurs bazasini kengaytirish, respublika aholisining turmush darajasi va farovonligi o‘sishini ta’minalash maqsadida jozibador depozit turlarini ishlab chiqish orqali mablag‘lar jalb qilish hamda ularni bozor qonunniylari asosida taqsimlash samaradorligini oshirish, tijorat banklarining resurs bazasini ularning kapitallashuv darajasi hamda aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh pul mablag‘larini depozitlarga jalb qilishda banklar tomonidan puxta ishlab chiqilgan depozit siyosati muhim hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari tarmoqlarining kengayishi tufayli, ular orasida depozitlarga, banklararo kreditlarga va boshqa bank resurslariga raqobatning kuchayishi vujudga keladi. Bank ishini omadli yuritish - uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilganligiga - unga ta’sischilar va mijozlari tomonidan bo‘lgan ishonchi, va bankning barqarorligiga bog‘liq. Bank tizimining rivojlanishi esa tijorat banklarining resurslaridan samarali foydalanish va ularni boshqarilishiga bog‘liq. Shunday qilib, tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish muhim masalalardan hisoblanib, resurslarni muddatiligi va risk darajasini inobatga olgan holda, ko‘p tomonlama

yondashuvni talab qiladi. o‘zbekiston Respublikasida bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va investitsiyaviy faolligini kengaytirish ishlari doimiy ravishda amalga oshirilmoqda.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligi va ishonchlilagini yanada oshirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning investitsiyaviy faolligini rag‘batlantirish, shuningdek xalqaro me’yor va standartlarga muvofiq, shu jumladan depozit va kredit siyosati sohasida respublika banklariga nisbatan qo‘yilayotgan me’yoriy talablarni yanada takomillashtirish masalasi hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Tijorat banklari depozit amaliyotida qator muammolarning mavjudligi banklarning resurs bazasining barqarorligiga ta’sir qilmoqda. Bu esa, bank aktivlarining samaradorligini pasayishiga olib keladi. Chunki, bankning aktiv opreatsiyalar hajmi bevosita depozitlar hajmiga bog‘liqdir. (Saidov D.A., 2016)

Ushbu muallifning fikrini ma’qullagan holda aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimidagi islohotlarning bosh maqsadi bank faoliyatini takomillashtirishdir. Bu orqali banklarning likvidligi va daromadlilagini oshirish, depozitlar hajmini ko‘paytirish, va aholi farovonligini ta’minalash uchun jozibador depozit turlarini ishlab chiqish zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari o‘rtasida raqobatning kuchayishi natijasida banklar o‘z resurs bazasini kengaytirishga, kapitalni oshirishga va bozor qonuniyatlariga muvofiq mablag‘larni samarali taqsimlashga intilishadi. Banklarning barqarorligi va ishonchliligi, ularning mijozlar va ta’sischilar tomonidan ishonchni qozonishi bilan bog‘liqdir. o‘zbekiston bank tizimini mustahkamlash va kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida doimiy ravishda ishlar olib borilmoqda. Banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va investitsiyaviy faolligini rag‘batlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhimdir. Tijorat banklarining depozit amaliyotida mavjud muammolar, resurs bazasining barqarorligiga ta’sir qilib, aktivlar samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, banklar o‘z faoliyatlarini yanada samarali tashkil etish va resurslarni boshqarish bo‘yicha ko‘p tomonlama yondashuvni qo‘llashlari zarur.

Bank resurslari tarkibida ularning o‘z mablag‘lari hajmining yuqori bo‘lishi banklar faoliyati barqarorligini ta’minalashning asosi hisoblanadi. Bankni tashkil qilishning ilk bosqichidagi barcha xarajatlar, bank faoliyati uchun zarur bo‘lgan rezervlar, fondlar ham bankning o‘z mablag‘lari hisobidan shakllanadi. Moliyaviy menejment tizimida eng muhim yo‘nalishlardan biri bank aktiv va passivlarini samarali boshqarish hisoblanadi. Aktivlarni boshqarish asosida o‘z va jalb qilingan resurslarni joylashtirish tartibi va yo‘llari yotadi. Mazkur nazariyada asosiy e’tibor tijorat banklarining depozit bazasini yaxshilashga qaratiladi. Xalqaro amaliyotda qo‘ylgan mana shunday nazariy va amaliy asosdan kelib chiqib bizning respublikamizda ham tijorat banklarining barqaror resurs bazasini shakllantirish borasida qator ijobjiy ishlar

amalga oshirildi. Ushbu ishlar samarasi, iqtisodiyotning jadal sur'atlarda rivojlanishi, aholi daromadlarining ko‘payishi, aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchining oshishi bank depozitlarning ham oshishiga imkon yaratmoqda. Natijada oxirgi 5 yilda bank depozitlari qoldig‘ining o‘sish sur’atlari 30 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan mijozlarga milliy va xorijiy valyutada 250 turdan ortiq talab qilib olinadigan omonotlarni taklif etayotganligi ijobjiy hol hisoblanadi. Albatta, jalb qilingan resurslar banklar faoliyatida ahamiyatli bo‘lib katta salmoqqa ega. Shu bilan bирgalikda tijorat banklarining o‘z mablag‘lari, shu jumladan bank kapitalining yetarliligi va barqarorligini ta’minalash jalb qilingan mablag‘larning o‘z vaqtida qaytarilishi va umuman bank faoliyatining moliyaviy jihatdan tetik faoliyat ko‘rsatishida katta ahamiyatga ega. (Abdullayeva Sh.Z. va b., 2016)

Bank tizimining barqarorligiga ko‘p sonli ichki va tashqi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Milliy bank tizimining barqarorligini baholashni bank nazorati bo‘yicha ishlab chiqilgan standartlariga, reyting baholash tizimlariga, xalqaro reyting agentliklari faoliyatida qo‘llaniladigan mezonlar va me’yorlarga hamda Markaziy banklar tomonidan ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar tizimiga asoslanishi ma’lum bo‘ldi. Bank tizimi barqarorligini ta’minalash, mavjud ko‘rsatkichlarni doimiy tahlil etib borish, zarur bo‘lganda tezkor chora-tadbirlar ishlab chiqish natijasida, banklarning inqirozi oldi olinadi va bank tizimi barqarorligini ta’minalashga zamin yaratadi. (Sattorov O., 2016)

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tijorat banklarining strukturasi o‘zgarishi, ularning kapital bozoridagi investitsion faoliyatini oshirish va moliyaviy barqarorligini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Banklarning resurslarini samarali boshqarish, raqobatbardosh depozit mahsulotlari va investitsion imkoniyatlarni taklif etish orqali ularning moliyaviy holatini mustahkamlash mumkin.

### **1. Tijorat banklari strukturasi.**

Tijorat banklarining strukturasi ularning funksiyalari, xizmatlari va resurslarining taqsimotini o‘z ichiga oladi. Ushbu tuzilma quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- **Moliyaviy xizmatlar:** kreditlar, depozitlar, investitsiyalar.
- **Kapitallashuv darajasi:** Bankning o‘z mablag‘lari va majburiyatlari o‘rtasidagi muvozanat.

- **Risklarni boshqarish:** Kredit, likvidlik, va operatsion risklar.

### **2. Kapital bozoridagi investitsion faollik.**

Kapital bozorida investitsion faoliyat banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Banklar investitsiyalarni diversifikatsiya qilish orqali:

- **Raqobatbardoshlikni oshirish:** Yangi investitsiya imkoniyatlarini kashf etish.
- **Daromadlarni ko‘paytirish:** o‘sish potentsialiga ega sohalarga sarmoya kiritish.

- **Risklarni kamaytirish:** Diversifikatsiya orqali potentsial zararlarni kamaytirish.

### **3. Strukturaviy o‘zgarishlar va moliyaviy barqarorlik.**

Banklarning strukturasasi o‘zgarishi moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi:

- **Kapitallashuvni oshirish:** Yangi mablag‘larni jalg qilish, qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali.

- **Resurslarni samarali taqsimlash:** Investorlar va mijozlar uchun jozibador shart-sharoitlar yaratish.

- **Moliyaviy ichki nazoratni kuchaytirish:** Risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.

Tahlil jarayonida banklar tomonidan amalga oshiriladigan strukturaviy o‘zgarishlar va ularning natijalari quyidagilarni ko‘rsatadi:

- **Samaradorlik oshishi:** Bank faoliyatining samaradorligi va rentabelligi oshadi.

- **Investitsion faollikning ortishi:** Banklar ko‘proq investitsiya imkoniyatlarini qidiradilar va foydalanuvchilarga yangi mahsulotlar taklif etadilar.

- **Barqarorlikning yaxshilanishi:** Moliyaviy barqarorlik va mijozlar ishonchining ortishi, bu esa uzoq muddatli o‘sishga olib keladi.

## **XULOSA**

Tijorat banklarining strukturasasi o‘zgarishi orqali kapital bozoridagi investitsion faoliyatini oshirish va moliyaviy barqarorligini yaxshilash, banklar uchun muhim strategik vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonlar banklarning raqobatbardoshligini oshirib, iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi. Har qanday strukturaviy o‘zgarishlar muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun banklar o‘z mijozlari va bozor talablari bilan uzviy aloqada bo‘lishi zarur.

Tijorat banklarining strukturaviy o‘zgarishlari kapital bozoridagi investitsion faoliyatni oshirish va moliyaviy barqarorlikni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu o‘zgarishlar banklarning resurslarini samarali boshqarish, innovatsion xizmatlar taklif etish va risklarni minimallashtirish imkonini beradi.

Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish va yangi bozor segmentlariga kirish banklarning raqobatbardoshligini oshiradi, shuningdek, daromadlarni ko‘paytiradi. Kapitallashuvni oshirish orqali banklar o‘z moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, mijozlar ishonchini qozonadilar.

Umuman olganda, tijorat banklarining strukturasini o‘zgartirish orqali amalga oshiriladigan harakatlar nafaqat individual banklarning o‘sishini ta’minlaydi, balki butun iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun, bu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish banklar uchun strategik ahamiyatga ega.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish haqida o‘RQ-582-son Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish haqidagi O‘RQ-580-son Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
5. Saidov D.A. “Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va ularni moliyaviy barqarorligini oshirish yo‘llari” maqolasi, 2016-yil.
6. Sattorov o. “o‘zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta’minlash ko‘rsatkichlari amaliy tahlili” maqolasi, 2016-yil.
7. Abdullayeva SH.Z., Absalamov A., Abdullayev S. “Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda bank kapitalining o‘rni” maqolasi, 2016-yil.
8. **Mishkin, F. S. (2016).** *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson.
9. **Khan, M. S. (2013).** *Banking and Financial Markets*. oxford University Press.
10. **KPMG (2020).** *The Future of Banking: Capital Markets Transformation*. KPMG Report.
11. **Rudolph, H. (2018).** *Commercial Banking: A History of Banking in the U.S.* Springer.
12. **Berger, A. N., & Udell, G. F. (2006).** *A More Complete Conceptual Framework for SME Finance*. Journal of Banking & Finance.
13. **Zhang, Y., & Geng, X. (2017).** *The Role of Commercial Banks in Capital Markets: An International Perspective*. International Journal of Economics and Finance.
14. **Basel Committee on Banking Supervision (2019).** *Capital Adequacy Framework*. Bank for International Settlements.
15. **Liu, H. (2020).** *Financial Intermediation and Capital Market Development: A Review*. Journal of Financial Stability.
16. **Santomero, A. M., & Eckles, D. L. (2000).** *Risk Management in Commercial Banking*. Financial Markets, Institutions & Instruments.
17. **World Bank (2021).** *Financing for Development: The Role of Commercial Banks*. World Bank Report.
18. Lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi ma’lumotlar bazasi.
19. Mb.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti.